

TALABALARDA AXLOQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING MAZMUN-MOHIIYATI

Navoiy davlat universiteti “Pedagogika
nazariyasi va tarixi” yo’nalishi

1-bosqich magistranti

Tursunova Malika Sanjar qizi

Annotatsiya: Maqolada axloq va axloqiy madaniyat tushunchalarining mazmuni, ularning yoshlar hayotidagi ahamiyati hamda talabalarda axloqiy madaniyatni shakllantirishning mohiyati haqida so’z yuritilgan.

Kalit so’zlar: axloq, odob, tarbiya, axloqiy madaniyat, ma’naviyat, talaba, shakllanish, jamiyat, komillik.

Annotation: the article talks about the content of the concept of morality and moral culture, their importance in the life of your people and the essence of forming moral culture in students.

Keywords: morality, manners, education, moral culture, spirituality, student, formation, society, perfection.

Аннотация: в статье говорится о содержании понятий этики и нравственной культуры, их значении в жизни молодежи, а также сущности формирования нравственной культуры у студентов.

Ключевые слова: нравственность, нравы, воспитание, нравственная культура, духовность, учащийся, образование, общество, совершенство.

XXI asr - globallashuv zamoni hech bir sohaga, ijtimoiy hayot jabhalariga va madaniyatning turli ko'rinishlariga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaganligi barchamizga ma'lum. Bu ayniqsa, yoshlarning ma'naviyatida, axloqiy tarbiyasida yaqqol aks etadi. Aslida biz axloq tushunchasini shunday izohlaymiz: "Axloq-ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, insonlarning o'ziga, oilasiga, do'st-birodarlariga, jamoa a'zolariga va tabiatga bo'lgan munosabatini tartibga soluvchi xulq, odob." [1] "Axloq-insonning ijobiy sifatlari majmuidir. Odob va axloq bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Odob alohida bir shaxsning muayyan bir xislatini ifodalovchi axloqiy kategoriyadir. "[2] Yuqoridagi qonun-qoidalar ijobiy sifatlarni o'quvchi-talabalarning onggi, hayoti, turmush tarziga singdirish uchun ko'rsatilayotgan ta'sir axloqiy tarbiyada namoyon bo'ladi. Axloqiy tarbiya negizida esa axloqiy madaniyat shakllanadi. "Axloqiy madaniyat-jamiyatdagi axloqning yuksaklik darajasini, fuqarolarning axloqiy saviyasini aks ettiruvchi tushuncha. U shaxsning jamiyatdagi asosiy axloq meyorlarini egallashi va o'zgalar bilan shu asosda munosabatda bo'lishi, o'zini axloqiy tomondan muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarni o'z ichiga oladi". [3] Axloqiy madaniyat quyidagicha tuzilmalarga ega:

- a) jamiyat subyektlari axloqiy ongining belgilari va elementlari;
- b) xulq-atvor va muloqot madaniyati;

v) axloqiy xatti-harakatlar va faoliyat. [4]

Demak, jamiyatdagi insonlarning ijobiy axloq belgilari va elementlariga ega ekanliklari, ularda xulq-atvor va muloqot madaniyatining mavjudligi hamda bu sifatlarni o'z harakatlari va olib borayotgan faoliyatida namoyon bo'lishi axloqiy madaniyat tuzilmalarining asosidir.

Axloqiy madaniyatning shakllanishida moddiy va ma'naviy me'rosimiz, qadriyatlarimiz, necha asrlardan buyon saqlanib, sayqallanib kelayotgan urf-odat va an'analarimiz, tarixiy siymalarimiz, milliy san'atimiz va xalq og'zaki ijodimiz beqiyos o'rin tutadi. Bugungi kunda aynan oliy o'quv yurti talabalarida axloqiy madaniyatning shakllanishi tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Chunki bugungi kunning asosiy talabi bo'lgan shaxsning o'ziga xos fazilatlari ya'ni avvalo, o'ziga nisbatan tanqidiy tahlilning shakllanishi, o'z manfaatini jamiyat manfaati bilan uyg'unlashtirishi, o'zini o'zi nazorat qilishi, baholashi va boshqarishi singari ma'naviy jihatlari axloqiy madaniyatida namoyon bo'ladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bu ularning jamiyat tomonidan o'rnatilgan axloq normalarini egallaganligida va boshqalar bilan munosabatida (ota-onasi, o'qituvchilari, do'stlari va yon atrofidagi insonlar), o'zini tutishida va muomala madaniyatida ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Shuningdek, talabalarda axloqiy madaniyat shakllanishining mazmun-mohiyatini ochib berishda quyidagilarga alohida to'xtalib o'tamiz: talabalarda axloqiy madaniyatning shakllanishi ta'lim jarayoni samaradorligining sezilarli darajada oshishiga sabab bo'ladi, o'qituvchi hamda talaba hamkorligiga ijobiy ta'sir o'tkazadi, talabalarning bir-birlari bilan o'zaro do'stona munosabatda bo'lishlariga asos bo'ladi. Yana bir jihatni alohida ta'kidlab

o'tish kerakki, oliy o'quv yurtlarida bo'lajak pedagoglarga ta'lim berilayotganligini hisobga olsak, ularda axloqiy madaniyatning shakllanishi o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, bugungi murakkab globallashuv davrida jamiyatimizda milliy g'oya va mafkuraviy immuninetni kuchaytirish, yoshlarimizni turli zararli g'oya va tahdidlardan asrash, ularni o'z mustaqil fikriga ega , irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalash har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.”[5]

Talabalarda axloqiy madaniyatni shakllantirish o'qituvchidan alohida e'tibor, malaka va tayyorgarlik talab etiladi. Ta'lim oluvchilarning shaxsiy-xarakterologik sifatlarini aniq-lashning, hech bo'lmaganda oddiy metodikasini egallash, uni tatbiq etish, kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning muhim unsurlaridan biridir. Oliy va o'rta maxsus o'quv maskanlari o'qituvchilari ko'-pincha o'quvchi-yoshlarning aqliy qobiliyatlarini o'rganishga e'tibor qaratadilar, ammo ularning tarbiyalanganlik darajalarini (keng ma'noda) va xulqiy nuqsonlarini korrektsiyalash muammolarining uzluksiz ta'lim tizimida yagona uzviylik va yaxlitlik nuqtai nazaridan talqin qilishga, uning yechimlarini topishga urinishmaydi. O'quvchilar va talabalamning aqliy rivojlanishlari kop jihatdan mustaqil fikrlashga, umumiy tarbiyalanganlik darajasiga bog'liq. Ularning tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish, ma'naviy-ma'rifiy rivojlanish xususiyatlarini o'rganish, zarur bo'lsa xulqiy nuqsonlarini bartaraf etish hozirgi davrning muhim talablaridan biridir.[6] Dars jarayonini to'g'ri va samarali tashkil etilishi ham talabalarning idrok etish qobiliyatlari va ma'naviy-axloqiy

sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, axloqiy madaniyat-komillikka eltuvchi yo'l. Yurt kelajagi ham aynan shunday o'z kuchiga ishongan, o'zining boy ma'naviy dunyosiga ega barkamol yoshlar qo'lida. Ularni esa oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan bo'lajak o'qituvchilar tarbiyalaydi. Axloqiy madaniyat keng tushuncha bo'lib, uning insonda shakllanganligi insonning ijtimoiy hayotida va faoliyati o'z o'rnini egallashida va shaxsiy rivojlanishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.A.Axatova, F.O.Xodjiyeva, F.X.Aminova – “Pedagogika nazariyasi va tarixi” darslik. Navoiy-2023
2. G.K.Jabborova – “Pedagogik odob-axloq va talaba xulq-madaniyatini shakllantirishning asosiy omillari” maqola. (Cyberleninka.ru)
3. Sayt: oyina.uz – axloqiy madaniyat. Axloqiy tarbiya
- 4.M.Imomqulova- “Oliy o'quv yurti talabalarida axloqiy madaniyatni shakllantirish” maqola. (researchgate.net)
5. Sh. Mirziyoyev- “Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik”. O'zbekiston nashriyoti. Toshkent-2023
6. X.Ibragimov, Sh.Abdullayev – “Pedagogika nazariyasi” Toshkent-2008